

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

5/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 5, may

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Hayitov Sh.A., Davronova M.S.	“Arba’in”navislikning shakllanish omillari haqida	4
Safarova Z.T., Ergasheva G.O.	X.To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida bosh qahramon vahimasini ifodalashda yozuvchi uslubi	9
Choriyev J.A.	Ingliz va o‘zbek asarlaridagi zoomorfik metaforalar xususida (ingliz adabiyotidan vilyam shekspir asarlari asosida)	13
Ismatova M.T.	Jadid she’riyatida ramziylik: an’ana va ijodiylik	19
Akhmedova M.B., Nizomova A.U.	The dynamics of childhood representation in 20th and early 21st-century english drama	25
Бўриева Р.О., Шофиев О.Б.	Л.Н.Толстой асарларида болалик образи талқини (“Болалик. Ёшлик. Ўспиринлик” қиссаси мисолида)	30
Хакимова Х.Р.	Классификация глосс религиозной тематики в исторических романах М.И.Шеввердина	35
Maxsumov M.M.	Alisher Navoiyning “G‘aroyib us sig‘ar” devonida nafsning obraz sifatidagi badiiy tasviri	39
Abdullayeva N.B.	A. Tolstoy va E. Zamyatin asarlaridagi fantastik obrazlar	44
Qurbonova N.R., Ikromova N.I.	Ted Xyuz she’rlarining o‘ziga xos poetik xususiyatlari	54
Jumayeva N.G‘., Iskandarova M.A.	Allan Edgar Po hikoyalarida gotik mavzularning aks etishi	59
Muhammadiyev A.M.	Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida adabiy ta’sir masalasi	63
Safarova Z.T., Niyazova D.J.	“Da Vinchi siri” asarida detektiv janri xususiyatlari ifodasi	69
Ochilova M.Sh.	Alisher Navoiy she’riyatida sabrning badiiy tahlili	73
Jalilova L.J., Oromova M.S.	Stages of the development of children's literature: the formation of a fantastic discourse	77
G‘aniyeva O.X., Ashurova N.A.	“MR. Potter” romanida bilvosita xarakterlash va uning badiiy-estetik vazifasi	85
Sohibova Z.N.	Usmon Azim she’riyatida tabiat tasvirining o‘ziga xosligi	91

Uralova N.E.	Characteristics of O. Henry's use of metaphors in his short stories as an example of the story “The gift of the Magi”	96
Хакимова Д.М.	Анализ развития персонажа в повести Менглибоя Мурадова "Моя недетская душа"	100
Mirzayev X.T.	XVIII-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining ayrim masalalari tadqiqi	105
Ruziyeva N.H.	Abdurauf Fitratning “Oila” asari va uning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi	109
Олимов М.Х.	Алишер Навоий ва Бобур - бир асрнинг икки даҳоси	113
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., G‘ulomova Sh.H.	“Farhod va Shirin” dostonida jurmi gunoh talqini	118
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A.	Ikkinchi jahon urushi-yillarida sovet-german frontida asirga olinganlar va ularning fojiali taqdirleri	121
Савриев Ж.Ф.	Зарафшон воҳаси архитектура ёдгорликларини таъмирлашда жамоатчиликнинг иштироки	125
Ризаев Б.Н.	Советча коллективлаштириш лойиҳаси	132
Sayfullayev B.D.	O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi madaniy munosabatlar: adabiy aloqalar misolida	140
Эргашев Ж. Ю., Тоҳирова М.Т.	Қорақўл териси савдоси ва унинг минтақавий ҳамда халқаро бозорлардаги ўрни	145
Qudratov Sh.Y., Sayfiddinov D.R.	Tarixchi olimlari Dono Ziyayevaning O‘zbekiston tarixi faniga qo‘shgan hissasi	149
Salimov S.S.	2009-yil parlament saylovlarining o‘ziga xos xususiyatlari	153
Nosirov Sh.O‘.	Buxoro amirligidagi 1917-yil aprel voqealarining Turkiston matbuotida yoritilishi	158
Murodov H.S.	O‘zbekistonda xalqaro turizmning yo‘lga qo‘yilishi (1993-1997-yillar misolida)	162
Kenjayev S.N.	Amir Temurning tashqi siyosatida: tibet xalqlari va buddaviylik	167
Jamolova D.K.	Buxoroda gidlik va turizm: shaharning tarixiy merosiga nazar (somonilar maqbarasi misolida)	171

Boltayev B.B.	Yurtimizdagi ilk muzeylarning shakllanishi va bosib o'tgan taraqqiyot yo'li	175
Baxtiyorov B.B.	Afshona qishlog'i tarixiga bir nazar	180
Orunbayev A.	Ittihad va taraqqiy harakati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlarining tahlili	184
Xurramov A.R.	Poykent arxeologik yodgorligini muzeylashtirishning tarixiy asoslari	190
Murodova D.Sh., Rajabova M.U.	Buxorodagi so'nggi arxeologik tadqiqotlar	194
Савриев Ж.Ф.	Навоий вилоятининг тарихий объектларини асраб қолишда замонавий шаҳарсозлик муаммолари	198
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	"Strategik avtonomiya" zamonaviy Hindiston tashqi siyosatining bosh tamoyili sifatida	202
Nadjimov F.K.	O'zbekistonda siyosiy yangilanishlar davrida tashqi hamkorlik masalalari	206
Uzoqov I.Sh.	Siyosiy madaniyat: tushuncha, mazmun-mohiyat	210
Surobova R.Z.	Tarix falsafasining asosiy tamoyillari va ularning axloqiy tarbiyaga ta'siri	214
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Shoyimov Sh.Sh.	Ommaviy xizmat ko'rsatish modellarining tarkibiy qismlari va tasnifi	217

G'aniyeva Orzigul Xayriddinovna,

Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), Dotsent

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası

o.x.ganiyeva@buxdu.uz

Ashurova Nigina Aziz qizi,

Buxoro davlat universiteti magistrant talabasi

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası

n.a.ashurova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy Amerika adabiyoti vakilasi Yamayka Kinkeydning “Mr. Potter” romanidagi qahramonlar tasvirida bilvosita xarakterlashning qo'llanilishi hamda uning badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif asardagi ikkinchi darajali qahramonlarni tahlil qilgan holda ularni ta'riflashdagi bilvosita xarakterlash o'rnini o'rganadi va turli misollar bilan mavzuni yoritadi. Kinkeyd boshqa qahramonlarni bilvosita xarakterlash orqali o'quvchilar ko'z o'ngida Mr. Potter obrazini gavdalantiradi.

Kalit so'zlar: bilvosita xarakterlash, qahramon, badiiy-estetik vazifa, inson, shaxsiyat, ichki dunyo, xarakter, yozuvchi.

КОСВЕННАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В РОМАНЕ “MR. POTTER” И ЕЁ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется использование косвенной характеристики в изображении персонажей романа “Mr. Potter” представительницы современной американской литературы Ямайки Кинкейд, а также её художественно-эстетическое значение. Автор, исследуя второстепенных персонажей произведения, изучает роль косвенной характеристики в их описании и раскрывает тему на различных примерах. Кинкейд с помощью косвенной характеристики других персонажей создаёт в воображении читателей образ мистера Поттера.

Ключевые слова: косвенная характеристика, персонаж, художественно-эстетическая функция, человек, личность, внутренний мир, характер, писатель.

INDIRECT CHARACTERIZATION IN THE NOVEL “MR. POTTER” AND ITS ARTISTIC- AESTHETIC FUNCTION

Annotation. This article analyzes the use of indirect characterization in the portrayal of characters in “Mr. Potter”, a novel by contemporary American literature representative Jamaica Kincaid, as well as its artistic and aesthetic significance. The author examines the role of indirect characterization in describing secondary characters and explores its function through various examples. Through the indirect characterization of other characters, Kincaid brings the image of Mr. Potter to life in the reader's mind.

Keywords: indirect characterization, character, artistic-aesthetic function, human, personality, inner world, behavior, writer.

Kirish. Yozuvchi o'z asarini yaratish jarayonida bevosita ma'lum bir davr, manzara, hodisa va, ko'p hollarda, shaxslarning ta'riflarini keltiradi. Bundan asosiy maqsad o'quvchi ko'z o'ngida shu asarni jonlantirish va unga kirishishini ta'minlashdan iborat. Biroq muallif ba'zan bunday tasvirlashni to'g'ridan-to'g'ri keltirmasligi, aksincha bilvosita, asardagi boshqa omillar yordamida ochib berishi ham mumkin. Masalan, yozuvchi asardagi muayyan qahramonga batafsil ta'rif bermasdan uning shaxsiyati va ruhiy olamini qahramonning tashqi ko'rinishi, nutqi va xatti-harakatlari orqali ko'rsatishi mumkin. Asar qahramonini bu usulda yashirin tasvirlash orqali muallif o'quvchining diqqat-e'tiborini ko'proq jalb qilish va asar so'ngigacha o'zgacha qiziqishni saqlab qolgan holda qahramonni chuqur taftish qilishga chaqirishni ko'zda tutadi. Shu tarzda o'quvchi qahramonni mustaqil o'rganib boradi va uni o'ziga yaqin ola boshlaydi, uning ruhiy olamiga kirishib, do'st tutinadi.

Yamayka Kinkeyd “Mr. Potter” romanida Janob Potter obrazi orqali Antigua xalqining tartibsiz hayot tarzini yaqqol ochib beradi, ammo asarning biror o’rnida qahramonlarga to’liq ta’rif bermaydi. Bunda u asar qahramonlarining tashqi ko’rinishlari, suhbatlari va asardagi turli vaziyatlarga bildirgan munosabatlarini asos qilib oladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiya. Mavzuni yoritish maqsadida zamonaviy Amerika adabiyoti yozuvchisi Yamayka Kinkeydning “Mr. Potter” romani tahlil qilindi va ushbu jarayonda madaniy-tarixiy, badiiy tahlil, biografik va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. “Mr. Potter” asarida bir nechta muhim qahramonlar mavjud bo’lib, ular Janob Potter shaxsiyatining shakllanishida muhim o’rin tutadi.

Nathaniel Potter – Janob Potterni otasi. U baliqchi bo’lib, Dushanba va Payshanba kunlari to’rini suvga tashlar, Seshanba va Juma kunlari tutilgan baliq idishlarini tekshirar, Chorshanbada to’rini tuzatar, Shanba kuni sotgan barcha baliqlarining pulini sanar va, nihoyat, Yakshanba ayoli tayyorlagan echki go’shtidan borshni kechki ovqatda tanovvul qilar edi. Bu odatlar uning o’ta tartibli va yangilikni xushlamaydigan inson ekanligini ko’rsatadi. Aynan shu jihati Roderick Potterga o’tganligini uning ishida va mashinasi bilan munosabatida ko’rishimiz mumkin. Nathaniel yigirma bir farzandning otasi edi, ammo u ularning faqat o’n bitta o’g’lini tanir edi, xolos. O’g’illarining birortasi ham otasidan keyin dengizchi bo’lmadi. Nathaniel Potterni kiyishga oyoq kiyimi yo’q edi, u dengizdan nafratlanar va undan ustun kelishni istar edi. Bechoralik va kambag’allikdan charchagan Nathaniel *“bir necha kunlab bo’sh qolgan baliq idishlari uchun dengizni va Xudoni duoibad qilgach, butun tanasida toshmalar paydo bo’lib, xuddi olovda jizg’anak bo’lgandek qorayib vafot etadi”*. [3, 47] Potter otasiz katta bo’lganligi sababli hech qachon u haqida o’ylamas, “ota” tushunchasi unga begona edi. Ammo u bir paytlar daraxt tagida onasining gaplariga javoban ularga burilgan erkak uning otasi ekanligini bilardi. *“Unga oynada qarab turadigan yuz aynan o’sha erkakning yuzi edi”*, deydi yozuvchi. [3, 99] Bu esa Potterni o’z otasiga nihoyatda o’xshash bo’lganligidan dalolat beradi. O’sha voqeani va otasini eslar ekan, Janob Potterni xayoliga darhol o’zbek tilida “O’tgan ishga salovat” jumlasini anglatuvchi *“No use crying over spilled milk”* iborasi kelar edi. Ingliz tilidan so’zma-so’z tarjima qilganda “To’kilgan sut ustidan yig’lashning foydasi yo’q” degan ma’no kelib chiqadi. Yozuvchi nega aynan sutligini ham batafsil izohlab ketadi. Chunki sut Potter uchun juda qimmatli edi. Bolalikda bu qimmatli ichimlikdan mahrum bo’lgan Roderick o’zini shunday deb ovutardi. Janob Potterni otasiga nisbatan ko’z ilg’amas ushbu munosabati uning naqadar matonatli qahramon ekanligiga yana bir bor ishora qiladi.

Elfrida Robinson – Janob Potterni onasi. Asarda u haqida ko’p ma’lumot keltirilmaydi. *“Undan doim piyoz hidi kelib turardi va Potter onasi haqida bundan boshqa hech narsani eslay olmaydi”*. [3, 88] Elfridaning otasi yo’q edi va Roderick uning yagona farzandi edi. Chaqaloq Roderick yosh Elfridani charchatar edi. Nathaniel Potter uni va farzandini tan olmagach, kunlarning birida Roderickni yetaklab, uning oldiga bir daraxt tagiga boradi va og’riqli gaplar bilan uni ehtimol haqoratlaydi. Ushbu holatni yozuvchi quyidagicha ta’riflaydi: *“Uning og’zi go’yo bir qurol edi-yu, uning so’zlari esa shu qurol uchun maxsus tayyorlangan o’qlar edi. Baliq idishlari va to’rlari bilan o’ralgan daraxt ostidagi erkak, so’zlar uni jarohatlagan bo’lsa kerak, unga yog’ilayotgan alam manbasini ko’rish uchun burildi”*. [3, 98] Parchaning keskinligidan Elfridaning chekkan aziyatlarini va bu uning sabrining oxirgi nuqtasi bo’lganligini sezish mumkin. Sababi, shundan so’ng u kichkina Roderickni Shepherdlariga tashlab, *“moviy osmon ostidagi moviy dengizga moviy libosda o’zini g’arq qiladi”*. [3, 73] Moviy rang ramziy ravishda g’am-qayg’uni, Elfridaning umidsizlik va tushkunlik holatini bildiradi. Shuningdek, uni hayot sinovlariga dosh bera olmagan zaif qahramon sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Mr. Shepherd – Potterni katta qilgan oila boshlig’i va ota-onasi yo’q qarovsiz o’g’il bolalar uchun maktabning direktori. O’zining ismi Llewellyn, ayolining ismi Doreen bo’lgan janob va xonim Shepherdlar afrikalik qullarning avlodlari bo’lib, ularning to’rt o’g’illari kichkinaligida vafot etgan edi. *“Shepherdning yuzida rozilik, mehr, muhabbat va qiziquvchanlik alomatlari ko’rinmas edi. Uning yuzida doim ikki narsaning aksi bor edi: g’alabaga umid va mag’lubiyatga ishonch”*, deb ta’riflaydi uni Kinkeyd. [3, 98] Ushbu ta’rifdan Mr. Shepherd qahramonining hayotga va o’ziga ishonchsiz, umidsiz hamda hissiz bo’lib qolganining guvohi bo’lamiz. Ehtimol, bu janob Shepherd boshdan kechirgan qiyinchiliklar, tahqirlar va farzandlari o’limining ta’siridir. Ammo Shepherd garchi o’g’illari u uchun xuddi ko’zlari, og’zi, yuragi va oyoqlaridek o’ta zarurligini, agar ularni yo’qotib qo’ysa, adoyi-tamom bo’lishini va avvalgi holatiga hech qachon qayta olmasligini juda yaxshi bilsa ham, ularni sevmas edi. U mashinasini sevar edi, shu qadar sevar ediki, ba’zan yarim tunda uning tim ko’k rangda ko’rinishini va yomg’ir yog’ganda u tasavvur ham qila olmaydigan yarqiroq kulrang tus olishini tomosha qilish uchun atayin uyg’onar edi. Bundan esa Mr. Shepherdning qalbida hali shijoat va go’zallikka bo’lgan ishtiyoqning mavj urib turganini ko’rish shubhasiz. U yuzaga chiqara olmaydigan sevgisi shu tarzda uning yuragining tubida yashirin. *“Potter esa uning zolimligi va razolatini sukut va beparvolik bilan qabul qiladi, natijada, bu zulm, shavqatsizlik, sukut va beparvolik – barchasi Potter uchun*

qobiqqa aylanadi, shunchaki qobiq emas, usiz yashash imkonsiz bo'lgan himoya qobig'i bo'lib qoladi." [3, 93] Ushbu tasvir bilvosita ikkala qahramonning ham o'ziga xos xarakterini ochishga xizmat qiladi. Chunonchi, Mr. Shepherd qanchalar zulmkor va beshavqat bo'lgani qadar, Mr. Potter shunchalar matonatli va ko'nikuvchan. Ammo Janob Shepherdning oz bo'lsa-da mehr-muruvvat egasi ekanligi bir necha o'rinlarda yozuvchi tomonidan yashirin namoyon etiladi. Jumladan, garchi bayramni ham Shepherdning uy yumushlari bilan o'tkazganiga qaramasdan, Janob Shepherd Rojdestvo kunida Potterga kichkina shishada mashhur do'konlardan o'zi sotib olgan shirin, lekin kuchli Portugaliya vinosidan va tunuka idishchada bir bo'lak olxo'rili pudding bilan saxovat ko'rsatadi. Bu sovg'alar yomon holatga kelib qolgan bo'lsa-da, Potter o'shanda bularni sezmagan edi. Chunki u bundan oldin taqqoslay olish imkonini beruvchi hech qanday vino va puddingni tatib ko'rmagan edi. Lekin bu saxovat Potterda hech qanday taassurot qoldirmadi. Zero, u bunday an'anani o'zi qurgan oilalarda takrorlamadi. O'shanda tatib ko'rgan puddingning naqadar bemaza bo'lganligini ham hikoyani so'zlab berayotgan qizi Elainening oyisi, ya'ni Potterning ayollaridan biri bo'lgan Annie, unga tayyorlab bergan turli shirinliklarini yeb ko'rganidan so'ng tushunib yetdi. Mr. Shepherd Potterga qilgan saxiyliklaridan yana biri va, ehtimol, eng asosiysi, unga mashina haydashni o'rgatganligidir. Chunki bu kasb Potterning hayotida o'ta muhim ahamiyat kasb etib, uning butun mazmuniga aylanadi.

Mr. Shoul – mashinalarni ijaraga berish bilan shug'ullanuvchi livanlik bir janob bo'lib, u Potter haydaydigan mashinaning egasidir. Yozuvchi uni *"insonlar Mr. Shoul hayotimizni yaxshilab berdi deb o'ylaydi, lekin u ularning hayotini yaxshilamasdi, u shunchaki boshqalar hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi bir vosita edi"*, deya ta'riflaydi. [3, 179] Shuningdek, *"Mr. Shoulning yuzi doim kulgiga burkanib turishi, lekin bu kulgi Mr. Shoul toki Janob Potterni ko'rgunga qadar davom etishi, sababi, uning uchun Potter tutruqsiz va hech qanday ahamiyatga ega emasligi va Mr. Shoul o'zi haqida ham aynan shunday tuyg'ularni his qilishi"* aytib o'tiladi. [3, 115] Yozuvchi ushbu ta'riflar orqali Mr. Shoul qahramonining ham ichki ziddiyatlarga boyligi, o'zini naqadar qiymatli ko'rsatishga urinmasin, aslida, uning nafaqat jamiyat, balki o'zining oldida ham hech qanday qadr-qimmati yo'qligini mohirona ko'rsata olgan.

Dr. Zoltan Weizenger – chexoslovakiyalik shifokor bo'lib, Ikkinchi Jahon Urushi davrida boshpana izlab, Antiguaga ko'chib kelgach, Mr. Potterning doimiy mijoziga aylanadi. Asl ismi Samuel bo'lgan ushbu shifokor *"Mr. Potter va Potterga o'xshaganlarning barchasidan nafratlanardi"*. [3, 8] Ushbu parcha orqali Kinkeyd Zoltanning irqchiligiga ishora qiladi. Mr. Potter uni ilk ko'rganida *"naqadar sovuqqon odam"* (*"e dead, e dead"*), deb aytganligi, Weizenger esa Potter haqida *"qanday ahmoqlik va jaholat; qanchalar jirkach bu odam"* deb o'ylaganligi ham bu fikrning isbotidir. Weizenger orolga kelganidagi vaziyat va uning ichida tug'yon urayotgan o'ylar yozuvchi tomonidan o'ta noziklik bilan tasvirlanadi: *"Weizenger uni ushbu uysizlik va boshpanasizlik tomon zulm bilan olib kelgan dengizni sirli deb bilardi, go'yoki quyosh uning soyasini ham o'chirib yuborgandek edi, u o'zini shu darajada yolg'iz his qildiki, hatto uni yupatish uchun uning o'z aksi ham yonida emas edi"*. [3, 10] Oddiy bir haydovchining o'zini tanishtirishidagi, ismini aytishidagi o'ziga bo'lgan cheksiz muhabbat va ishonch Potterni nafas olish qobiliyatidan mahrum qilishga va uni umrbodga ovozini o'chirishga undadi-yu, Weizenger bu qotilona g'azabini jamadonlarni qayerga joylash va yana qachon ularni boshqa manzillarga eltib qo'yishga buyruq berish bilan almashtirdi. Ushbu o'y-fikrlar Dr. Zoltanning ayni damda naqadar alamzada ekanligi va u nimadan o'ziga dalda topishni bilmay qiynalayotgani, vatan sog'inchisi, endigi hayoti, kelajagi haqidagi noaniqlik va mavhumlik, unga yot odamlarning munosabati unga azob berayotganligi, lekin bo'sh kelmay, sabr qilayotgani Kinkeyd tomonidan yashirin oshkor qilinadi. Ammo u o'zgarmaydi, hayotining oxirigacha shunday bo'lib qoladi. Shifokorning vafotida odamlar uni yaxshi xotiralar bilan eslashmaydi. Garchi u insonlarni davolagan va hayotlarini yaxshilagan bo'lsa ham, uning dafn marosimi uzoqqa cho'zilmaydi va hech kim u uchun aza tutmaydi. Odamlar faqatgina unga murojaat qilib borganlarida Weizenger ularning hidlari, tirnoqlari, sochlari va, hattoki, mavjudliklari haqida aytgan haqoratomuz gaplarni eslashadi.

Annie Victoria Richardson – Elainening onasi, Mr. Potter hayotida chuqur iz qoldirgan ayollardan biri. Yoshligida otasi uning maktabga borishini talab qilgani uchun u o'qish va yozishni bilardi. Shuningdek, Annie otasining jarroh do'stinikida ishlardi. Ammo u shifokor ham ayolining oilasi yashaydigan St. Kittsga ko'chib ketgach, Annie uy yumushlaridan charchaydi. Bir qancha nizolardan so'ng otasi undan voz kechgan Annie Dominikadan Antiguaga ko'chib keladi va Dr. Weizengerga yordamchi bo'lib ishga kiradi. U shifokorning uskunolari tozaligi bilan shug'ullanar va bemorlarning sochlari taralgan, tirnoqlari va tishlari ozoda, o'zlari ham yuvingan bo'lishlarini ta'minlab berar edi. Janob Potter bilan ko'rishganda u 25 yoshda edi. Anniening uzun va qora sochli, juda ham chiroyli ayol bo'lganligi, Elaine ham onasiga o'xshashi va buni unga ko'pchilik aytgani yozuvchi tomonidan bilvosita Elaine orqali hikoya qilinadi. Mr. Potter uni va qizini tan olmagach, Annie o'ch olish maqsadida Potter o'zi orzu qilgan mashinani olish uchun yig'ib yurgan pulini olib, qochib ketadi. Ushbu holatni Elaine quyidagicha ta'riflaydi: *"Oyim ko'plab yeguliklarni shirin tayyorlashga o'ta usta edi, lekin shuning bilan bir qatorda, u dadamning hayotiga achchiqlik va yoqimsiz tuyg'ularni qo'shgan edi,*

dadam esa bularni menga o'tkazgan edi". [3, 94] Bundan Anniening qo'rqmas, o'zini sevuvchi va qadrllovchi ayol ekanligining guvohi bo'lamiz. Sababi, u shunchaki ko'nish va ojizlikni emas, balki o'z hayoti va farzandining kelajagi uchun kurashni tanladi va Elainening ham savodli bo'lishiga erishdi. *"U ingliz va fransuz tillarida gapirib, o'zini erkin va hech qanday cheklovlersiz, majburiyatlarsiz his qilar edi, ammo u cheklovlersiz emas edi, u allaqachon mening oyim edi"*, – deydi Elaine onasi haqida. [3, 135] Bu ham Annie farzandi uchun naqadar kuchli va mas'uliyatli ona bo'lganligining va bu Elaineni qayg'uiga solib, onasiga uni erkinlikdan mahrum qilib turgan bir cheklovdek o'zini his qilganining isbotidir.

Elaine Synthia Potter – Janob Potterning qizi bo'lib, asar uning tilidan hikoya qilinadi. Elaine haqida hech qanday bevosita tasvirlar keltirilmaydi, o'quvchiga faqatgina nutqlari va monologlari uning tuyg'ularini va shaxsiyatini tushunishga yordam beradi. Otasidan farqli ravishda Elaine o'qish va yozishni biladigan savodli inson bo'lib, bunda onasining hissasi katta bo'ladi. U *"tan olinmaslik an'anasi"*ni tugatishga va *"passportidagi otasining ismi o'rnida turgan chiziq"*ni (*"A line runs through him"*) yo'q qilishga bel bog'laydi va otasining qabrini izlab topadi. Tirikligida Janob Potter hech bir qizini tan olmagan edi, Elaine ham shu qizlar ichida bo'lib, bolalik xotiralarini shunday eslaydi: *"Taxminan 4 yoshligimda Janob Potterni ishxonasi oldida ko'rib qolib, birinchi bor unga qo'l silkidim va "Xayrli tong" tiladim, bu imo-ishoralalar orqali men unga u meniki ekanligini, men esa unga tegishli ekanligimni anglatmoqchi bo'ldim. Ammo u menga javoban shunchaki qo'l siltab, garajga kirib ketdi. Men uning uchun go'yo yo'lni to'sib turgan bir it edim. Men uning uchun go'yo hech narsa edim"*; *"Uning mavjudligi bir soya edi"*; *"Mr. Potterning silashlari va quchoqlari xuddi tig'ga o'xshardi."* [3, 125] Bu xotiralar Elainega tinchlik bermaydi. Otasining bu harakatlari uni naqadar nafratlantirmasin, u otasidan voz kech olmaydi va Janob Potterni bunday qilishiga majburlagan sabablarni o'rganib chiqib, otasini boricha qabul qiladi va kechiradi. Bu holat o'zining farzandlari bilan takrorlanmasligini istaydi. U otasining his-tuyg'ulariga e'tibor qaratadi: *"Janob Potterning yuragida ko'plab bo'shliqlar bor: afsus va umid vodiylari; pushaymonlik va xafalik tog'lari; orzular dengizlari; mevasiz va changga to'lgan dalalar; quvochning sayoz ariqlari; g'amning chuqur yoriqlari; keskin bo'rtib chiqqan qo'rquv va g'urur. Mr. Potterning yurak bo'shliqlari shunday edi, ammo bularning bari unga sir edi"*; *"Uning butun hayoti va tuyg'ulari tutqunlikda edi"*. [3, 172] Elaine kitobxon ko'z o'ngida o'ta kuchli qahramon sifatida gavdalanadi. U bardoshli, maqsadi yo'lidan qaytmaydi va chiqqan har qanday to'siqni yengadi. Buni biz Elaine qabriston xodimi Tan-Tan Mr. Potterning qabrini topib bermaguncha ketmaganligi, uni sabr bilan kutib turishi va topishini talab qilishida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, adabiyotda qahramonni o'quvchiga tanishtirish yoki uning ichki qiyofasini ochib berishda yozuvchi har doim ham bevosita ta'riflashdan foydalanmasligi mumkin. Muallif qahramon ruhiyatini va xarakterini asarda qatnashuvchi boshqa omillarga suyanib ham mukammal darajada ko'rsatib berishi mumkin. Jumladan, asar qahramonining tashqi ko'rinishi, kiyinish va so'zlashish uslubi, ichki o'y-kechinmalari, asardagi boshqa qahramonlar bilan olib borgan suhbatlari, ularga qilgan muomalasi yoki asarda sodir bo'ladigan turli vaziyatlarga nisbatan bildirgan munosabat va javoblari ham qahramon ruhiy olamining ko'zgusi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qahramon ichki olamini ochib berishda bunday yordamchi vositalarni qo'llay olish nafaqat muallifdan buyuk mahoratni talab qiladi, balki o'quvchiga ham ushbu badiiy ijodkorlikni tushunib, tahlil qila olishda va asarning to'liq mazmunini anglab yetishda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda o'quvchi yozuvchining fikrlarini va ko'zlagan maqsadini aniqlashga harakat qilar ekan, asar qahramonini beixtiyor uning o'zi kashf qiladi.

Zamonaviy Amerika ayol yozuvchilaridan bo'lgan Yamayka Kinkeyd o'zining *"Mr. Potter"* romanida qahramonlarni bilvosita xarakterlash orqali yozuvchi sifatida o'z mahoratini eng yuqori darajada ko'rsata olgan. Bu asar Kinkeydning nafaqat boshqa asarlari orasida, balki zamonaviy jahon adabiyotida ham aynan bilvosita tasviriy yondashuvning ajoyib namunasi sifatida alohida ajralib turadi. Yozuvchi asar oxirigacha ushbu tasvir usulini saqlab qoladi va bosh qahramon atrofidagi barcha boshqa qahramonlar va holatlar orqali go'yo Janob Potter obrazini chizadi. Qahramonlar o'zining ichki ruhiy olamini boshqa personajlar bilan suhbatda, kiyinish uslubi, xatti-harakatlari va atrofdagi bo'layotgan hodisalarga munosabati bilan ifodalaydi va bunda asar muallifining hissasi beqiyosdir.

ADABIYOTLAR:

1. Ganieva Orzigul Khayriddinovna, & Ashurova Nigina Aziz Qizi. (2023). *Indirect characterization in jamaica kincaid's «mr. potter»*. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 51–56. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-10>
2. Ganieva O. K. *Depiction of relations between a person and society in american realistic literature //Scientific Bulletin of Namangan State University*. – 2020. – T. 2. – №. 8. – C. 215-220.
3. Kincaid, Jamaica. *Mr. Potter*. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2002.

4. Khayriddinova G. O. "East of eden" романида қаҳрамонлар хулқ-атворида жамият фикрининг таъсири //scientific reports of bukhara state university. – С. 146.
5. Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 31. – С. 157-159.
6. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. John steinbeck's "discontent" over the social problems //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 146-148.
7. Khayriddinova G. O., Jahonovna C. M. Description of the relationship between people and society in john steinbeck's „the grapes of wrath” //IEJRD-International Multidisciplinary Journal. – Т. 6. – С. 75-78.
8. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. Family relationships in john steinbeck's novel "east of eden" //Евразийский журналакадемических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 247-249.
9. Ganieva Orzigul Khayriddinova, & Turayeva Dilorom Rustamjonovna. (2023). Description of Perseverance in Eudora Welty's Short Story "A Worn Path". Miasto Przyszłości, 42, 722–725. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2171>
10. Bakhtiyorovich, Sadullaev Feruz. «Peculiar features of henry james's early novels.» (2022).
11. Sadullayev F. B. Inner characterization of the main character in the novel "the wings of the dove" by henry james//Conferencea. – 2022. – С. 132-135.
12. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Safarova DildoraKabilovna. (2023). The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre. Miasto Przyszłości, 42, 726–729. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2172>
13. Садуллаев Ф.Б. XX аср ақш модерн адабиётинингтарихий ҳамда ижтимоий негизлари //scientific reports of bukhara state university. – С. 171.
14. Садуллаев Феруз Бахтиёрович. «XX аср ақшмодерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари.» Scientific reports of bukhara state university: 171.
15. Садуллаев Ф. Ҳенри жеймс ижодида инсон руҳиятитасвирининг бадиий-эстетик вазифалари //Social sciences.
16. Khayriddinova, G. O. "Description of Parental Influence in "East of Eden" by John Steinbeck." International journal of inclusive and sustainable education 1.4 (2022): 94-97.
17. Ganieva O. K., Sadullayev F. B. The Role Of Female Characters in the novel "The Grapes Of Wrath" by John Steinbeck //Актуальные вопросы современного образования. – 2020. – С. 5-8.
18. Bakhtiyorovich S. F., Kabilovna S. D. The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 42. – С. 726-729.
19. Sadullayev F. B. Inner characterization of the main character in the novel "the wings of the dove" by henry james //Conferencea. – 2022. – С. 132-135.